



TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar - iyul





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 480** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgustga nisbatan **2 889** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,4%**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **158** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 322** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- iyul oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **41069,1** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan **111,8 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **17882,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **23187,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,5%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1042,7**mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **114,5 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda |
|--------------------------|-----------------|--|-----------------------------|--|---|--|
| Toshkent shahar . | 41 069,1 | 111,8 | 17 882,0 | 124,9 | 23 187,1 | 116,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Ucntepa | 3619,8 | 104,0 | 648,0 | 112,8 | 2971,7 | 115,3 |
| Bektemir | 1483,3 | 110,6 | 269,4 | 77,5 | 1213,9 | 137,8 |
| Yunusobod | 4550,7 | 103,9 | 2126,2 | 113,9 | 2424,5 | 108,8 |
| Mirzo-Ulug'bek | 2944,1 | 115,8 | 1371,6 | 130,8 | 1572,6 | 118,6 |
| Mirobod | 3166,2 | 115,0 | 1755,5 | 119,2 | 1410,6 | 124,1 |
| Shayxontohur | 4203,6 | 116,4 | 2516,0 | 153,6 | 1687,5 | 96,4 |
| Olmazor | 3207,6 | 105,1 | 1367,3 | 97,1 | 1840,4 | 126,2 |
| Sergeli | 2368,2 | 113,6 | 1210,2 | 135,4 | 1158,0 | 109,7 |
| Yakkasaroy | 3833,3 | 123,3 | 1707,0 | 168,5 | 2126,3 | 114,4 |
| Yashnobod | 3527,9 | 118,1 | 1467,4 | 126,2 | 2060,5 | 127,3 |
| Yangihayot | 611,0 | 130,6 | 309,0 | 143,6 | 302,1 | 134,8 |
| Chilonzor | 7553,3 | 108,8 | 3134,4 | 117,2 | 4419,0 | 116,8 |

2023- yilning yanvar – iyul oylarida 2022- yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**130,6%**), Yakkasaroy (**123,3%**), Yashnobod (**118,1 %**) va Shayxontohur (**116,4%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - iyul, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,7 %** ni yoki **31 111,9** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar – iyul oylari)



2023- yilning yanvar – iyul oyida o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **18,4 %** bilan **7 553,3 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,5 %** bilan **611,0 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **23 187,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – iyul oylariga nisbatan **116,5** % ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **58,1** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – iyul oylariga nisbatan **124,9** % ga o'sdi va **17 882,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **43,5** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ 2 ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**19,1** %), Uchtepa (**12,8** %) va Yunusobod (**10,5** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **43,5** % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (17,2 %), Shayxontohur (**14,1** %), Yunusobod (**11,9** %), Mirobod (**9,8** %) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, foizda |
|------------------------|----------------------|---------------------------|
| Toshkent shahar | 13 790,8 | 108,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Uchtepa | 12 266,2 | 101,4 |
| Bektemir | 26 023,3 | 102,1 |
| Yunusobod | 12 319,3 | 101,6 |
| Mirzo-Ulug'bek | 9 056,1 | 112,6 |
| Mirobod | 21 079,7 | 112,4 |
| Shayxontohur | 11 618,5 | 114,5 |
| Olmazor | 8 069,5 | 102,5 |
| Sergeli | 14 475,3 | 104,4 |
| Yakkasaroy | 29 669,2 | 119,0 |
| Yashnobod | 12 077,8 | 113,6 |
| Yangihayot | 3 723,6 | 122,4 |
| Chilonzor | 27 678,1 | 106,9 |

2023- yilning yanvar-iyul holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 13 790,8 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 108,3 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**29669,2** ming. so'm), Chilonzor (**27 678,1** ming. so'm) va Bektemir(**26 023,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10 42679,8** mln. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan **2,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **930 776,1** mln. so'mni (**130,1%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **111 903,9** mln. so'mni tashkil etdi (**121,4%**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

| | Jami, mln. so'm | 2022- yil yanvar-iyul oylariiga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mln. so'm | 2022- yil yanvar-iyul oylariiga nisbatan, foizda | Chorva bozorlari, mln. so'm | 2022- yil yanvar-iyul oylariiga nisbatan, foizda |
|-----------------------------------|------------------|--|-----------------------------|--|-----------------------------|--|
| Toshkent shahar. tumanlar: | 1042679,8 | 114,5 | 930776,1 | 130,1 | 111 903,9 | 121,4 |
| Uchtepa | 96 931,0 | 108,9 | 93 930,3 | 2,8 marta | - | - |
| Bektemir | 299 479,2 | 2,2 marta | 229 738,9 | 2,0 marta | 111 850,5 | 121,3 |
| Yunusobod | 105 287,1 | 95,9 | 101 327,1 | 63,3 | - | - |
| Mirzo-Ulug'bek | 156 180,1 | 165,4 | 140 230,1 | 120,3 | - | - |
| Mirobod | 45 310,9 | 88,3 | 45310,2 | 5,71 marta | - | - |
| Shayxontohur | 113 273,6 | 155,2 | 109 273,6 | 98,6 | - | - |
| Olmazor | 28 568,7 | 74,5 | 28 546,4 | 90,9 | 53,4 | 133,5 |
| Sergeli | 39 184,9 | 97,1 | 37 284,9 | 144,0 | - | - |
| Yakkasaroy | 40 669,4 | 60,5 | 38 669,4 | 138,6 | - | - |
| Yashnobod | 72 670,4 | 60,6 | 64670,4 | 97,1 | - | - |
| Yangihayot | 3 330,5 | 43,3 | - | - | - | - |
| Chilonzor | 41 794,0 | 48,5 | 39794,0 | 186,0 | - | - |

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - iyun oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **930 776,1** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**408 106,9** mln.so'm) to'g'ri keldi.

| Qishloq xo'jaligi mahsulotlari | | Mln. so'm |
|---|---|--------------|
|  | Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari | 408 106,9 |
|  | Non va non mahsulotlari | 73 465,0 |
|  | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) | 100 699,8 |
|  | Tovuq go'shti | 104 991,2 |
|  | Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) | 56 189,8 |
|  | Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) | 26 068,4 |
|  | Tuxum | 30 276,2 |
|  | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak | 3 383,0 |
|  | Ziravorlar | 66 612,0 |
|  | Tuzlamalar | 23 362,4 |
|  | Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi) | 13 920,1 |
| | Nooziq-ovqat tovarlari | 23 701,3 |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln.so‘m

2023- yilning yanvar – iyul oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **111 903,7** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **92 828,3** mln.so‘m, qo‘y va echkilar – **16 513,9** mln. so‘mni, otlar – **2 508,0** mln. so‘mni, parrandalar – **53,5** mln. so‘mni tashkil qildi.

| Chorva mollari (parrandalar) | | Mln. so‘m |
|---|---|-----------|
|  | 2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar | 74 539,2 |
|  | 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 7 575,9 |
|  | 1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 10 713,3 |
|  | Qo‘ylar | 15 944,4 |
|  | Otlar | 2 508,0 |
|  | Echkilar | 569,5 |
|  | Kurka, o‘rdak, g‘oz | 29,1 |
|  | Tovuqlar | 24,4 |
|  | Quyionlar | - |
|  | Qushlar | - |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 522** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – avgust holatiga nisbatan **1 826** taga kamaygan va o'sish sur'ati **71,2 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **141** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 381** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar – iyul oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi 3 901,4 mlrd. ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,1 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **60,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda |
|------------------------|-----------------|--|-----------------------------|--|--|--|
| Toshkent shahri | 3 901,4 | 110,1 | 1 546,6 | 118,3 | 2 354,7 | 129,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Uchtepa | 109,9 | 117,2 | 0,5 | 38,1 | 109,5 | 145,8 |
| Bektemir | 60,2 | 108,6 | 38,3 | 122,4 | 21,9 | 111,7 |
| Yunusobod | 502,9 | 105,0 | 189,3 | 131,5 | 313,6 | 115,4 |
| Mirzo-Ulug'bek | 390,3 | 105,9 | 25,4 | 107,9 | 365,0 | 130,4 |
| Mirobod | 288,8 | 105,4 | 49,2 | 133,4 | 239,7 | 124,5 |
| Shayxontohur | 1 094,3 | 111,5 | 824,5 | 109,8 | 269,7 | 144,3 |
| Olmazor | 185,4 | 106,3 | 14,4 | 54,3 | 170,9 | 142,6 |
| Sergeli | 304,8 | 136,3 | 238,5 | 145,0 | 66,3 | 138,1 |
| Yakkasaroy | 337,4 | 109,3 | 44,6 | 211,2 | 292,8 | 125,6 |
| Yashnobod | 264,8 | 108,4 | 86,7 | 107,3 | 178,1 | 134,3 |
| Yangihayot | 59,8 | 105,3 | - | - | 59,8 | 130,3 |
| Chilonzor | 302,8 | 106,7 | 35,4 | 135,2 | 267,4 | 128,0 |

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- avgust holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **14 447,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **109,4 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **6 366,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **114,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **8 081,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **110,1 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajm, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|------------------------|---------------------|-------------------|
| Toshkent shahri | 14 447,0 | 100,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Uchtepa | 480,9 | 3,3 |
| Bektemir | 636,9 | 4,4 |
| Yunusobod | 1 380,8 | 9,6 |
| Mirzo-Ulug'bek | 705,5 | 4,9 |
| Mirobod | 1 084,4 | 7,5 |
| Shayxontohur | 1 465,7 | 10,1 |
| Olmazor | 139,1 | 1,0 |
| Sergeli | 4 807,4 | 33,3 |
| Yakkasaroy | 1 412,8 | 9,8 |
| Yashnobod | 1 088,5 | 7,5 |
| Yangihayot | 522,5 | 3,6 |
| Chilonzor | 722,5 | 5,0 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**4 807,4** mlrd. so'm), Yunusobod (**1 380,8** mlrd. so'm) va Shayxontohur (**1465,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshket shahar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **81 488,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,5%** ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **52 162,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,0 %** ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **64,0 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Sergeli (**38,4b.**), Yashobod (**27,0b.**) va Yangihayot (**19,1b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **15820** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgust holatiga nisbatan **701** taga kamaygan, o'sish sur'ati **95,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **246** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **15 574** tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oyiga nisbatan, foizda |
|--------------------------|-----------------|--|-----------------------------|--|--|--|
| Toshkent shahar . | 81 488,3 | 112,5 | 29 325,4 | 128,8 | 52 162,9 | 105,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Uchtepa | 4 924,8 | 105,9 | 449,0 | 125,1 | 4 475,8 | 104,3 |
| Bektemir | 982,9 | 105,1 | 80,2 | 62,0 | 902,7 | 112,0 |
| Yunusobod | 6 969,2 | 113,5 | 2 340,3 | 127,7 | 4 628,9 | 107,4 |
| Mirzo-Ulug'bek | 6 894,5 | 107,9 | 1 689,6 | 134,2 | 5 204,9 | 101,4 |
| Mirobod | 9 506,5 | 117,7 | 1 600,9 | 125,2 | 7 905,6 | 116,3 |
| Shayxontohur | 4 759,4 | 108,6 | 1 312,6 | 101,9 | 3 446,8 | 111,3 |
| Olmazor | 11 507,2 | 107,1 | 5 266,4 | 115,0 | 6 240,8 | 101,3 |
| Sergeli | 4 020,9 | 138,4 | 2 281,2 | 2,6 marta | 1 739,7 | 86,2 |
| Yakkasaroy | 9 496,9 | 102,3 | 4 008,2 | 115,5 | 5 488,7 | 94,4 |
| Yashnobod | 11 433,3 | 127,0 | 6 760,2 | 152,8 | 4 673,1 | 102,1 |
| Yangihayot | 713,4 | 119,1 | 217,9 | 140,0 | 495,5 | 111,8 |
| Chilonzor | 10 279,3 | 110,1 | 3 318,8 | 106,9 | 6 960,5 | 111,7 |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-202-88-21 (20)**